



## KLASTERLARNING INVESTITSIIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

### OPPORTUNITIES TO USE FOREIGN EXPERIENCES IN IMPROVING THE MECHANISM OF FINANCING INVESTMENT ACTIVITIES OF CLUSTERS

<sup>1</sup>**Qosimova Lola  
Sultanovna**

<sup>1</sup>*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi*

#### Annotatsiya Annotation

**Uzb.** - Mazkur ilmiy maqola klasterlarning investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning zamonaviy yondashuvlarini tahlil qiladi. Jahon tajribasi asosida rivojlangan mamlakatlarning moliyaviy mexanizmlari ko'rib chiqilib, O'zbekiston sharoitida ulardan foydalanish imkoniyatlari baholanadi. Maqolada iqtisodiy modellarga, xalqaro statistik ma'lumotlarga va investitsiya oqimlari bo'yicha tahlillarga asoslangan tavsiyalar beriladi.

**Eng.** - This scientific article analyzes modern approaches to financing cluster investment activities. Based on international experience, financial mechanisms of developed countries are examined, and the possibilities of their application in Uzbekistan are assessed. The article provides recommendations based on economic models, international statistical data, and investment flow analysis.

#### Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *klaster, investitsiya, moliyalashtirish mexanizmi, iqtisodiy model, xalqaro tajriba.*  
❖ *cluster, investment, financing mechanism, economic model, international experience.*

#### Kirish.

Bugungi kunda klasterlar iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas tarkibiy qismlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, klasterlashgan tizimlar investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishga kuchli turtki beradi. Ayniqsa, innovatsion va sanoat klasterlari zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar yaratishda muhim rol o'ynamoqda. Global iqtisodiyotda klasterlashgan tarmoqlar strategik investitsiyalarni jalb etishda samarali mexanizm sifatida xizmat qilmoqda. Ular nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtiradi, balki mintaqalararo

tafovutlarni kamaytirishda, yangi ish o'rinlari yaratishda va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim vosita hisoblanadi. Xalqaro tajribalar asosida shuni ta'kidlash joizki, klasterlar sanoat, innovatsiya va texnologik taraqqiyotning asosiy elementlaridan biri bo'lib, ularning moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiy barqarorlikka erishishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

So'nggi o'n yilliklarda klasterlashgan ishlab chiqarish tizimi dunyo iqtisodiyotida strategik rivojlanish vositasiga aylandi. Xususan, xorijiy mamlakatlar klasterlar orqali sanoatni diversifikatsiya qilish, qo'shilgan qiymatni oshirish va hududiy raqobatbardoshlikni kuchaytirish orqali investitsiyalarni jalb etishga katta e'tibor

bermoqda. Shu bois, klasterlarning investitsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash va moliyalashtirishga doir kompleks yondashuvlar ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.**

D.Sh. Mo'minova o'z tadqiqotlarida quyidagilarni ta'kidlaydi, ya'ni "klaster modeli sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida resurslarni samarali taqsimlash, chuqur qayta ishlash va eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi. Klasterlarning moliyalashtirilishida davlat kafolatlari, imtiyozli kreditlar va xususiy investitsiyalarning o'rni muhim" [1].

N.R. Karimova fikriga ko'ra, "O'zbekistonda klasterlarni rivojlantirishda muammolardan biri – moliyalashtirishning markazlashganligi va xususiy sektordek ishtirokchilarning cheklanganligidir [2].

A.N. Murtazayev va boshqalar tahlillarida sanoat klasterlari muvaffaqiyatli ishlashi uchun ularning atrofida logistika, moliyaviy va biznes infratuzilmasi ham rivojlangan bo'lishi kerak. Faqat mahsulot ishlab chiqarish emas, balki qo'shimcha qiymat zanjiri yaratilishi lozimligi ta'kidlashadi [3].

I.Yo'ldoshev va Sh.Islomov fikriga ko'ra, klasterlashtirish bu – tarmoqlar integratsiyasi. Uni moliyalashtirishda mahalliy byudjetlar, tijorat banklari, jamg'armalar, xalqaro institutlar ishtirok etishi shart [4].

Maykl Porter bu muammoga quyidagicha yondashadi, ya'ni "Klaster – bu biznes subyektlari, ta'lim, tadqiqot va moliyaviy muassasalarning geografik yaqinlashgan va o'zaro bog'langan to'plami. Ular innovatsiya, samaradorlik va raqobatbardoshlik manbaidir" [5].

A.V. Polyakov va D.A Kuzin tadqiqotchilar esa "Investitsiya faoliyatini rag'batlantirish uchun klasterlarni moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik asosida kapital jihatdan ta'minlash modellarini joriy qilish kerak" deb ta'kidlashadi [6].

Jon Xamfri va Xubert Shmidt tadqiqotlarida quyidagi fikrlarni ilgari surishadi, jumladan, kichik biznesni integratsiya qilgan klasterlar moliya muassasalari uchun xavfsizroq investitsiya maydoni hisoblanadi, agar davlat kafolatlari va subsidiyalari mavjud bo'lsa [7].

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu tadqiqot klasterlarning investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va xorij tajribasini O'zbekiston sharoitida tatbiq etish imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib unda mantiqiy mushohadi, taqqoslama tahlil va emperik adabiyotlari tahlillari keltirilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Klasterlar iqtisodiy rivojlanishning muhim omili bo'lib, ular innovatsiyalarni joriy etish, bozor talabini shakllantirish, hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi hamda ularning investitsiya faoliyati esa samarali ishlash, infratuzilma mavjudligi hamda hududiy imkoniyatlarga bog'liq. Klasterlar zamonaviy iqtisodiyotda rivojlanishning muhim mexanizmlaridan biri bo'lib, ularning ta'sir doirasi juda keng. Quyida klasterlarning iqtisodiy rivojlanishga qo'shadigan hissasi va ularning investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar kengaytirilgan holda tahlil qilinadi.

Klasterlar iqtisodiy o'sishning katalizatori sifatida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

– Innovatsiyalarni joriy etish – Klasterlar ichida ilmiy-tadqiqot institutlari, startap kompaniyalar va sanoat korxonalari o'zaro hamkorlik qilish orqali yangi texnologiyalarni yaratish va joriy etish imkoniyatiga ega. Bu jarayon mahsulotlarning sifatini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini ko'tarish hamda yangi bozor segmentlarini yaratishga xizmat qiladi.

– Bozor talabini shakllantirish – Klasterlar bozor mexanizmlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Klaster

ichida raqobat muhitining kuchayishi va ishlab chiqaruvchilarning bozor talablariga moslashishi natijasida iste'molchilar ehtiyojlariga eng mos mahsulot va xizmatlar yaratilib, narxlarning muvozanati saqlanadi.

– Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish - Klasterlar hududiy darajada sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Klasterlar o'zaro yaqin joylashgan ishlab chiqarish korxonalarining barqaror o'sishini ta'minlab, tarmoq ichidagi firmalar o'rtasida samarali hamkorlikni shakllantiradi.

– Eksport salohiyatini oshirish - Klasterlar korxonalar o'rtasida tajriba almashish, innovatsion mahsulotlar yaratish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish orqali eksport hajmini oshirishga yordam beradi. Klaster mahsulotlari global bozor talablariga mos kelgani sababli xalqaro savdoda katta ustunlikka ega bo'ladi.

Klasterlardagi investitsiya faoliyatini moliyalashtirish – bu klasterning uzoq muddatli barqarorligi va samaradorligini ta'minlash uchun resurslarni jalb qilish va ulardan oqilona foydalanish tizimidir. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida klasterlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning uchta asosiy yo'nalishi ajratiladi: xususiy kapital, davlat moliyasi ba xalqaro moliyaviy institutlar.

Birinchi yo'nalish, xususiy kapital asosidagi moliyalashtirish. Xususiy sektor klasterlarning innovatsion, texnologik va eksportbop loyihalariga sarmoya kiritadi. Bunda asosiy vositalar quyidagilardan iborat bo'ladi, jumladan:

a) Venture capital (venchur sarmoya). Yangi texnologiyalar, startaplar ba yuqori xavfli, ammo yuqori rentabellikka ega loyihalarga yo'naltiriladi. Misol: AQShning Silicon Valley klasterida Sequoia Capital, Andreessen Horowitz kabi kompaniyalar milliardlab dollar sarmoya kiritmoqda.

b) Angel investorlar. Dastlabki bosqichdagi kichik biznes va startaplarni

moliyalashtiruvchi shaxsiy sarmoyadorlar. Ular nafaqat kapital beradi, balki maslahat, tarmoq (network) ba tajriba bilan qo'llab-quvvatlaydi.

c) Private equity (xususiy kapital fondlari). O'rta va yirik klaster ishtirokchilarini qayta restrukturizatsiya qilish ba kengaytirishga mo'ljallangan moliyalashtirish shakli.

Ikkinchi yo'nalish, davlat moliyasi asosidagi moliyalashtirish. Davlat tomonidan ajratiladigan mablag'lar asosan infratuzilma, ilmiy tadqiqot, kadrlar tayyorlash va ko'maklashuvchi faoliyatlar (logistika, konsalting) uchun yo'naltiriladi.

a) Davlat grantlari. Rivojlanayotgan klasterlar uchun innovatsion tadqiqotlar, pilot loyihalar va ijtimoiy ahamiyatli ishlab chiqarish uchun ajratiladi. Misol: Germaniyada ZIM dasturi orqali KOB (Kleinunternehmen) uchun R&D grantlar beriladi.

b) Subsidiyalar. Klaster ishtirokchilarning xarajatlari (energiya, transport, eksport) kamaytirish uchun to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy yordam. Misol: Janubiy Koreyada sanoat parklarida klaster ishtirokchilari uchun subsidiyalangan elektr energiyasi tariflari qo'llaniladi.

c) Imtiyozli kreditlar va soliq yengilliklari. Davlat banklari yoki sug'urta jamg'armalari tomonidan uzoq muddatli, past foizli kreditlar. Soliqdan ozod qilish (income tax holiday), QQSDan vaqtincha ozod qilish (VAT exemption).

Uchinchi yo'nalish, xalqaro moliyaviy institutlar orqali moliyalashtirish.

Xalqaro institutlar rivojlanayotgan mamlakatlarda klasterlarning institutsional rivojiga, infratuzilmasiga va ekologik barqarorligiga moliyaviy va texnik yordam ko'rsatadi.

a) EIB – Yevropa investitsiya banki. Yevropa Ittifoqi davlatlarida sanoat va IT klasterlarini moliyalashtirishda ishtirok etadi. EIB kreditlari: past foizli, 15-25 yil muddatli, asosan ustuvor tarmoqlar uchun.

b) World Bank (Jahon banki). Sanoat klasterlari infratuzilmasi, ta'lim, innovatsiya va kichik biznes rivojiga yo'naltirilgan mablag'lar ajratadi. Masalan: "China Clusters SEZ Report" doirasida Shenchjen sanoat zonasi tahlil qilingan.

c) GIZ (Germany) va UNIDO (BMT sanoatni rivojlantirish tashkiloti). Texnik yordam, kadrlar tayyorlash, klaster boshqaruvi strategiyalarini ishlab chiqishda yordam beradi. Misol: GIZ tomonidan Marokashda tekstil klasterini rivojlantirish loyihasi.

1-javdal ma'lumotlaridan shuni ko'rishimiz mumkinki, Germaniyada klasterlarni moliyalashtirishda Federal Iqtisodiyot va Energetika vazirligi hamda

Maxsus innovatsion fondlar (z.B. ZIM dasturi) orqali harakat qiladi. Klaster a'zolari uchun foydalanishga tayyor infratuzilma, R&D uchun grantlar ajratiladi. Masalan, Bavariya avtomobil klasteri BMW, Audi va o'rta korxonalarni birlashtirgan.

Janubiy Koreyada klasterlar faoliyati asosan "Techno Park" modeli asosida amalga oshiriladi. Bunda klasterlar davlat tomonidan yaratilgan texnologik parklar doirasida shakllantiriladi. Investitsiyalar arzon kreditlar, soliq imtiyozlari va subsidiyalar orqali rag'batlantiriladi. Moliyalashtirishda KOTRA va KDB banklarining ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

#### 1-jadval

#### Xorijiy mamlakatlarda klasterlarning investitsiya faoliyatini moliyalashtirish shakllari va samaradorligining solishtirmali tahlili [8, 9, 10, 11]

| Mamlakat       | Moliyalashtirish shakli | Davlat roli   | Xususiy sektor roli | Natija                        |
|----------------|-------------------------|---------------|---------------------|-------------------------------|
| Germaniya      | Grant, texnoparklar     | Faol          | Faol                | Innovatsion klasterlar        |
| AQSh           | Subsiyalar, kreditlar   | Chegaralangan | Kuchli              | Raqobatbardosh innovatsiyalar |
| Xitoy          | Davlat investitsiyasi   | Ustuvor       | Nazorat ostida      | Tez sanoatlashuv              |
| Janubiy Koreya | Kredit, parklar         | Katta         | Kichik              | Texnologik rivoj              |

AQShda klasterlar asosan Innovatsion klasterlar modeli asosida faoliyat yuritadi. AQShda klasterlar odatda hududiy iqtisodiy rivojlanish dasturlari orqali qo'llab-quvvatlanadi. Moliyalashtirish asosan SBA (Small Business Administration): kichik biznesni kreditlash va EDA (Economic Development Administration) klasterlar uchun grantlar ajratish orqali amalga oshiriladi.

Xitoyda klasterlar asosan sanoat parklari asosida tashkil etiladi. Xitoy klasterlarni davlat tomonidan rejalashtirish va uzoq muddatli kreditlar orqali qo'llab-quvvatlaydi. Klaster a'zolari uchun yer maydoni, soliq imtiyozlari, eksportga yo'naltirilgan kreditlar beriladi. Masalan, Shenzhen texnologik klasteri – Alibaba, Huawei va Tencent joylashgan.

Xorijiy amaliyotda keng tarqalgan va yuqorida amalga oshirilgan tahlilga asoslangan holda O'zbekistonda klasterlarning

investitsiya faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirishda quyidagi chora-tadbirlar samarali bo'lishi mumkindir, jumladan:

Birinchidan, gibrid moliyalashtirish modellarini joriy etish. Xorijiy tajriba (Janubiy Koreya, Germaniya va Xitoy) shuni ko'rsatmoqdaki, klasterlarni rivojlantirishda bitta manbaga bog'liqlik past samaradorlikka olib keladi. Shu bois, O'zbekistonda davlat grantlari (infratuzilma va innovatsiyalar uchun), xususiy sektor investitsiyalari (ishlab chiqarish va xizmatlar uchun), xalqaro moliyaviy institutlarni (ekologik, raqamlashtirish va ta'lim loyihalari uchun) birlashtiruvchi gibrid moliya modellarini joriy etish maqsadga muvofiq. Buning uchun maxsus platformalarni yaratish (onlayn tender, grant, kredit ma'lumotlari, baholash), hamda klasterlar bo'yicha maxsus moliyalashtirish

dasturlarini (masalan, "AgroCluster Fund") tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ikkinchidan, shaffof va xolis baholash mexanizmlarini joriy etish. Klaster loyihalarini moliyalashtirish uchun obyektiv, shaffof va baholash mezonlari asosida tanlash mexanizmi zarur. Masalan, biznes-rejaning iqtisodiy asoslanganligi, bozor tahlili, eksport salohiyati, ish o'rinlari yaratilishi, mahallashtirish darajasi va boshqalar, Ushbu baholashni avtomatlashtirilgan reyting tizimi (ballar shaklida) orqali amalga oshirish mumkin.

Uchinchidan, kafolat va sug'urta mexanizmlarini ishlab chiqish. Tijorat banklari va xususiy investorlarni klasterlarga jalb etish uchun qarz qaytarilmaslik xavfini kamaytirish mexanizmlari kerak. Bunda davlat kafolatiga ega maxsus fondlarni tashkil etish. Klasterda faoliyat yuritayotgan korxonalarini maxsus sug'urta dasturi orqali himoya qilish (masalan, tabiiy ofatlar, bozor risklari, eksport risklar). Bunday mexanizm xorijiy mamlakatlarda keng qo'llanilib kelinmoqda.

To'rtinchidan, eksport va ekologik loyihalarni moliyalashtirish dasturlarini joriy etish. Ekologik toza va eksportga yo'naltirilgan klasterlar kelgusida iqtisodiy o'sish drayveriga aylanib boradi. Shu bois "Green Cluster Finance" dasturi – yashil texnologiyalar, quvvatni tejash va qayta ishlashga yo'naltirilgan loyihalar uchun imtiyozli moliyalashtirish, "Export Support for Clusters" – klaster eksportchilarini targ'ib qilish, tashish xarajatlarini subsidiyalash, eksport sug'urtalarini amalga oshirish muhim sanaladi.

Beshinchidan, moliyaviy savodxonlik va loyiha boshqaruvi bo'yicha o'quv dasturlari tashkil etish. Klasterlarning samaradorligi ko'p jihatdan ularning moliyaviy rejalashtirish, sarmoya jalb qilish, biznes boshqaruvi ko'nikmalariga bog'liq bo'ladi. Shu sabab, klaster boshqaruvchilari, fermerlar va tadbirkorlar uchun doimiy o'quv markazlari tashkil etish ("Cluster Academy"). Mavjud iqtisodiy universitetlar huzurida klaster moliyasi bo'yicha ixtisoslashtirilgan kurslar va

sertifikatlash dasturlarini joriy etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

### **Xulosa va takliflar.**

O'zbekistonda klasterlarning investitsiya faoliyatini rivojlantirish masalasi faqatgina moliyaviy resurslarni oshirish yoki yangi mablag'lar jalb qilish bilan cheklanmasligi kerak. Samarali va barqaror rivojlanish uchun kompleks yondashuv – moliyalashtirish mexanizmlarini mukammal institutsional muhit, yuqori malakali inson kapitali va zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan birlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda klasterlarning investitsiya faoliyatini samarali rivojlantirish uchun moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishda bir necha muhim yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish zarur. Birinchidan, institutsional quvvatni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'z ichiga qonunchilik bazasini takomillashtirish, maxsus moliyalashtirish agentliklari va fondlarni tashkil etish hamda tadbirkorlik muhitini yaxshilash va klasterlarni boshqarish tizimlarini rivojlantirishni qamrab oladi. Institutlarning ushbu faoliyati klasterlarga investitsiya jalb qilish va moliyaviy resurslarni maqsadli yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi.

Ikkinchidan, klasterlar samaradorligini oshirish uchun inson kapitali salohiyatini kuchaytirish zarur. Bu moliyaviy savodxonlik, loyiha boshqaruvi bo'yicha doimiy o'quv dasturlari tashkil etish, shuningdek innovatsiya va texnologiyalarni joriy etish uchun kadrlarni tayyorlash, tajriba almashinuvi hamda xalqaro treninglarni amalga oshirish orqali amalga oshirilishi lozim.

Uchinchidan, raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya sohasini keng joriy etish orqali klasterlarning moliyaviy va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, onlayn platformalar va axborot tizimlari orqali moliyalashtiruvchilar uchun shaffoflik va samaradorlikni ta'minlash zarur. Shuningdek,

bozor va investitsiya trendlari haqida tezkor ma'lumot berish tadbirkorlarning tez va aniq qaror qabul qilishlarini rag'batlantiradi.

To'rtinchidan, xorijiy tajriba asosida integrativ yondashuvni joriy etish muhimdir. Bu xorijiy mamlakatlardagi innovatsion moliyalashtirish, davlat-xususiy sheriklik va texnik yordam mexanizmlarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish, xalqaro moliya institutlari va ekspertlar bilan hamkorlikda samarali moliyalashtirish modellari va boshqaruv usullarini joriy etishni o'z ichiga oladi. Shu orqali milliy xususiyatlar va iqtisodiy sharoitlarga mos keladigan moliyalashtirish mexanizmlari ishlab chiqilishi ta'minlanadi.

So'nggi o'rinda, barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlash maqsadida yashil texnologiyalar, energiya tejash va atrof-muhitni muhofaza qilishga yo'naltirilgan

investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash, shuningdek sanoat va xizmatlar sohasida uzoq muddatli innovatsion loyihalarni moliyalashtirish zarur. Eksport salohiyati yuqori bo'lgan klasterlar uchun alohida dasturlarni yo'lga qo'yish esa mamlakatning tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda klasterlarning investitsiya faoliyatini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun moliyalashtirish mexanizmlarini faqat moliyaviy resurslar bilan cheklash emas, balki kompleks institutsional, kadrlar salohiyatini rivojlantirish va raqamli yechimlar bilan birlashtirish zarur. Bu yo'l orqali mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirish va barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkin bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mo'minova D.Sh. Klasterlarni rivojlantirishda investitsiya muhitini yaxshilash masalalari // *Iqtisodiyot va ta'lim*. – Toshkent: 2022. – №5. – B. 112–117.
2. Karimova N.R. Klasterlarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishning dolzarb masalalari // *Toshkent moliya instituti ilmiy jurnali*. – 2021. – №4. – B. 85–90.
3. Murtazayev A.N., Ibrohimov A.A., Shukurov J.M. Klasterlar doirasida logistika va moliya infratuzilmasini rivojlantirish yo'nalishlari // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – 2023. – №1. – B. 55–63.
4. Yo'ldoshev I., Islomov Sh. Agrar sektorda klasterlashgan tizimlarni moliyalashtirish masalalari // *Agroilm*. – Samarqand: 2020. – №3. – B. 43–49.
5. Porter M. *The Competitive Advantage of Nations*. – New York: Free Press, 1998. – 875 p.
6. Поляков А.В., Кузин Д.А. Финансовое обеспечение кластерных инициатив: модели и инструменты // *Экономика и предпринимательство*. – Москва: 2021. – №12(133). – С. 102–108.
7. Humphrey J., Schmitz H. *Cluster Initiatives for Local Economic Development*. – Eschborn: GIZ, 2010. – 45 p.
8. <https://www.bmwi.de>
9. <https://www.kotra.or.kr>
10. <https://www.eda.gov>
11. <https://www.worldbank.org>